

UMUMTA`LIM MAKTABLARIDA GEOGRAFIYA FANINI O`QITISHDA YANGI INNOVATSION METODLAR QO`LLASH ORQALI TA`LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Sarikulov Mirkomil Olimovich
ADPI "Tabiiy fanlar" kafedراسi o`qituvchisi

Аnnotatsiya: Bugungi kunda geografiya fanini o'qitish samaradorligini oshirish va o'quv jarayonini yuqori saviyada tashkil etish yangi innovatsion yondashuvlarni taqozo etmoqda. Mazkur maqolada umumta`lim maktablari geografiya darslarini tashkil etishda bir qancha ta`lim metodlaridan foydalanish orqali o`quvchilarni qiziqtirish, ta`lim samaradorligini oshirish, o`quvchilarda nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko`nikmalarni shakllantirish, mustaqil fikrlay olish qobiliyatlarini rivojlantirish to'g'risida fikrlar berilgan.

Kalit so`zlar: metodlar, bumerang, venn, debat, geografik maydoncha, rivojlantirish, pedagogik texnologiyalar, klaster, demonstratsiya, ilyustratsiya, ekskursiya, suxbat, aqliy hujum.

Аннотация: Сегодня повышение эффективности преподавания географии и организация учебного процесса на высоком уровне требует новых инновационных подходов. В данной статье приведены идеи о том, как заинтересовать учащихся, повысить эффективность обучения, сформировать у учащихся практические навыки наряду с теоретическими знаниями, развить способности к самостоятельному мышлению, используя несколько педагогических приемов при организации занятий по географии в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: методы, бумеранг, венн, дебаты, географический район, разработка, педагогические технологии, кластер, демонстрация, иллюстрация, экскурсия, интервью, мозговой штурм.

Annotation: Today, increasing the efficiency of teaching geography and organizing the educational process at a high level requires new innovative approaches. In this article, ideas are given on how to interest students, increase educational efficiency, form practical skills in students along with theoretical knowledge, and develop independent thinking abilities by using several educational methods in the organization of geography classes in general education schools.

Key words: *methods, boomerang, venn, debate, geographical area, development, pedagogical technologies, cluster, demonstration, illustration, excursion, interview, brainstorming.*

Kirish: Bugungi kunda umumta`lim maktablarida geografiya fanini o`qitishda innovatsion ta`lim metodlaridan foydalanish o`quvchilarni fanga qiziqishlarini ortishi bilan birgalikda fanning mazmun va mohiyatini chuqur anglab yetish, uni amaliy ko`nikmalar bilan o`zlashtirishni yengillashtirmoqda. Geografiya darsliklarida berilgan ma`lumotlardan tashqari mavzuga aloqador qo`shimcha manbalardan foydalanish, ba`zi mavzularni yoritishda mavzuga doir o`quv filmlari va slaydlardan foydalanish ham geografiya fanini o`qitish samaradorligini oshiradi. Chunki, o`quvchilar eshitish orqali ma`lumotlarni 20-25 foizini yodda saqlab qolsa, ko`rish orqali esa ma`lumotlarni 80-85 foiziga yaqinini yodda saqlab qolish imkoniyati ega bo`ladi. Shuningdek, umumta`lim maktablarida geografiya fanini o`qitishda ko`nikma va malakalarni shakllantirishda interfaol metodlarning ahamiyati benihoya katta.

Asosiy qism: Metod – lotincha so`z bo`lib, o`qitishning yangi yo`lini izlash, tushuntirishning oson usulini topish, qidirish degan ma`noni anglatadi. Pedagogik o`quv qo`llanmalarda o`quvchilarni bilim, ko`nikma va malakalar bilan qurollantirish va ular tomonidan o`zlashtirish usullari o`qitish metodi deb ataladi. Maktablarda shu vaqtgacha qo`llanilgan o`qitish metodlari turlicha bo`lib, eng keng tarqalgan va ko`p qo`llaniladigan turlari quyidagilar:

- 1) o`quv mavzusini og`zaki bayon qilish;
- 2) suhbat;
- 3) darslik va kitob bilan mustaqil ishlash;

- 4) demonstratsiya, illyustratsiya (tasvirlash, rasmlar bilan ko`rsatish) va ekskursiya;
- 5) og`zaki, yozma mashq hamda grafik ishlar, maktab ma`ruzasi;
- 6) amaliy mashg`ulotlar (laboratoriya ishi, masala ishlash).


Ta`lim tizimida darslik bilan ishlash metodi asosiy o`rinlardan birini egallaydi. Darslik bilan ishlash ta`lim jarayonida o`qish-o`qitish ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun yordam bersa, ikkinchi tomondan, o`quvchilarning kelajakdagi faoliyati uchun zarur bo`lgan ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlarni mustaqil o`qib-o`rganish madaniyatini tarkib topdirish bilan birga u o`quvchilarni ko`nikma va malakalar bilan qurollantirishda katta ahamiyatga ega. O`quv adabiyoti bilan ishlash murakkab psixik jarayonni o`z ichiga oladi. O`qish jarayoni o`qituvchi tomonidan bayon qilinayotgan bilimlarni o`quvchilarning eshitib, o`qishlarinigina emas, balki o`quv materiallarini (ma`lumotlarni) kitob matnidan ko`rib, ongli idrok qilish faoliyatini ham taraqqiy ettirishni nazarda tutadi.

Darslik bilan ishlash metodi ikki shaklda olib boriladi:

-dars jarayonida darslik va o`quv adabiyoti bilan ishlash;

=darslik va o`quv adabiyotlari bilan sinfdan va maktabdan tashqari mustaqil ishlash;

Kitob bilan ishlashning har ikkala shakli o`quv fanlari bo`yicha deyarli hamma sinflarda qo`llanishi mumkin. O`quvchilarni darslik va boshqa o`quv ma`lumotlari bilan birga qo`shimcha adabiyot, ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar, shuningdek gazeta, jurnallardan foydalanishga ham o`rgatish kerak.



1-Rasm. Dars mashg'ulotlarini o'tishda foydalaniladigan metodlar.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan (1-rasm) foydalangan holda guruhlarda ishlash o'quvchilarning o'qituvchiga bo'lgan hurmatini, qolaversa fanga nisbatan qiziqishlarining ortishiga olib keladi. Bu kabi metodlarning asosiy yutug'i bubarcha o'quvchilarning faolligiga erishishdir, ya'ni bu orqali bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning dars mashg'ulotlarida doimiy ishtirokini ta'minlash mumkin. O'qituvchi shu kabi qo'shimcha manbalardan o'rinli foydalansa, o'quvchi mavzu haqida kengroq ma'lumotga ega bo'ladi.

Geografiya ta'limi sohasida, pedagogik va axborot texnologiyalarini rivojlantirish hamda keng ko'lamda qo'llash, dars mashg'ulotlarini noan'anaviy tarzda olib borish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o'quvchilarning geografik bilimlarini mustaxkamlash, ijodkorligini oshirish, maktab hayoti bilan uzviy bog'lash uchun maktab hududlarida o'qituvchi va o'quvchi hamkorligida - "Geografik maydoncha" lar tashkil etish maqsadga muvofiq. O'quvchilarga geografik ta'lim-tarbiya berish, ta'lim sohasida xorij tajribalaridan foydalanish, ta'lim tizimiga ilg'or pedagogik texnologiyalarini tadbiq etish zamon talabidir. Hozirgi kunda nafaqat ta'lim sohasiga, balki milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga internet, elektron tijorat, elektron biznes, virtual tijorat, virtual ta'lim,

masofadan o'qitish va virtual stend texnologiyalari kirib kelmoqda hamda ularning o'rnini muhim ahamiyat kasb etmoqda. Axborot xuddi an'anaviy resurslar kabi izlab topish, tarqatish mumkin bo'lgan resursga aylanmoqda. Moddiy ishlab chiqarish sohasidan mehnat resurslarining og'ishmay axborotlar sohasiga o'tib borish tendensiyasi tobora yaqqol sezilmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, ishlab chiqarish sur'ati o'sishi va rivojlanishi jarayonida qarorlar qabul qilish hamda boshqarish uchun zarur bo'lgan axborot hajmi ortib bormoqda. Bu o'sish avvalo, iqtisodiy, texnik, ilmiy, texnologik va ijtimoiy tizimlar jarayonida namoyon bo'ladi. Geografiya ta'lim jarayonida ham axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning o'rnini katta.

Xulosa: O'quv jarayonini yuqorida ta'kidlab o'tilgan metodlar yordamida ko'rgazmali tarzda tashkil etish o'quvchilarda ijodiy fikrlash, fan haqida aniq tassavurga ega bo'lish ko'nikmalarini shakllantiribgina qolmasdan, fanga qiziqishlarini oshirish, tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. O'qituvchilar har bir yangi mavzuni o'tganida topshiriqlarning mazmunan 'rta ta'lim maktabi 'rta ta'lim maktabi xilma-xil va qiziqarli bo'lishiga e'tibor qaratishi lozim. O'quvchilarga yangilik berish 'rta ta'lim maktabi 'rta ta'lim maktabi bilan birga, ularning psixofiziologik imkoniyatlarini hisobga olish, ularning fikrlash qobiliyatlarini va ijodiy tashabbusini rivojlantira olish kerak. Xitoyliklarning bir maqolida "Bolangga baliq tutib bersang, bugun qorni to'q, baliq tutishni o'rgatsang 'rta ta'lim maktabi 'rta ta'lim maktabi ertaga qorni to'q. Baliq tutish bilan birga qarmoq yasashni ham o'rgatsang har doim 'rta ta'lim maktabi 'rta ta'lim maktabi qorni to'q", deyiladi. Darhaqiqat, o'quvchilarimizni mustaqil, erkin fikrlay oladigan, 'rta ta'lim maktabi 'rta ta'lim maktabi jahon ilm-fani darajasida o'z o'rniga ega bo'ladigan, raqobatbardosh kadrlar qilib 'rta ta'lim maktabi 'rta ta'lim maktabi 'rta ta'lim maktabi tarbiyalash zimmasidagi eng mas'uliyatli va sharafli vazifa. Yaratilayotgan 'rta ta'lim maktabi imkoniyatlardan to'laqonli foydalanib o'z kasbiga vijdonan yondashadigan 'rta ta'lim maktabi 'rta ta'lim maktabi o'qituvchilarimizdan nafaqat ochiq darslarda yoki fan oyliklarida, balki oddiy o'qituvchilarimiz darslarda ham nutqiy savodxonlikka e'tibor qaratishlari, shiddat bilan rivojlanayotgan 'rta ta'lim maktabi zamon bilan hamnafas

bo lishlari talab etiladi. Shundagina biz ko zlagan ‘rta ta’lim maktabi ‘rta ta’lim maktabi manzilimizga, oldimizga qo ygan maqsadimizga erishamiz. Zero, davr o‘qituvchidan ham, o‘quvchidan ham izlanishni, yangiliklarni o‘zlashtirishni talab etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni.
2. J.G .Yo ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. T: “O qituvchi”. 2004 y
3. M.T.Mirakmalov, M.M.Avezov, E.Y.Nazaraliyeva. Tabiiy geografiyadan amaliy mashg ulotlar. T: “Fan va texnologiya” nashriyoti. 2015 y.